

## CHET EL OILA HUQUQI NORMALARINING MAZMUNINI ANIQLASH MASALALAR

*Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi*

*Farg'on'a viloyati yuridik texnikumi*

*"Mutaxassislik fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

*Tel.: +99899 841 00 96, e-mail: [salimovadiera146@gmail.com](mailto:salimovadiera146@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash masalalarini tahlil qiladi.

**Asosiy tushunchalar:** normalarni talqin qilish, sudlov mamlakati, konsullik muassasalari, ommaviy tartib, yuridik fakt sifatida, vasiylik va homiylik organlari, ilmiy tadqiqot institutlari, normalarning mazmunini aniqlash.

Chet el qonunlari normalari mazmunini aniqlash milliy organlarimiz – sud va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari uchun eng murakkab vaziyat hisoblanadi. Shu tufayli quyidagi manbalarga: oilaviy munosabat taraflarning chet davlat qonunlarini bilishi yoki bilmasligidan, qo'llashni iltimos qilishi yoki qilmasligidan qati' nazar, sudning xorijiy davlat oila huquqi normalarini bilishi va ularni o'z tashabbusi bilan qo'llashi vazifasiga; xorijiy davlat oila huquqi mazmunini anqilashga; xorijiy davlat qonunlarining normalarini talqin qilishga; xorijiy davlat qonunlari normalari aniqlanmagan yoki noto'g'ri qo'llangan taqdirda kelib chiqadigan oqibatlariga e'tibor berishga to'g'ri keladi<sup>1</sup>.

Xorijiy oila huquqi normalarining mazmunini belgilash muammolari nafaqat sudlar va FHDYo organlari, shuningdek, vasiylik va homiylik organlari va boshqa organlarga ta'sir qiladi.

Chet el oila huquqini qo'llash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- 1) xorijiy oila huquqining mazmunini belgilash tartibi;
- 2) talqin qilish tartibi va xorijiy huquqni qo'llash xususiyatlari;
- 3) xorijiy oila huquqini qo'llashni rad etish uchun asoslar mavjudligini aniqlash;
- 4) chet el oila huquqi normalarining mazmuni aniqlanmagan taqdirda moddiy huquqni qo'llash tartibi<sup>2</sup>.

Boshqa mamalakat qonuniga havolani o'z ichiga qamrab olgan kollizion normaning mavjudligi chet el oila qonunchiligi qo'llanilishini vujudga keltiradi.

Chet mamlakat qonuni mazmunini aniqlash sudlov mamlakatining o'z mamlakati qonun normalari mazmunini aniqlashdan aytarli farqlanadi. Sudlov mamlakatining o'z

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000. – B.432.

<sup>2</sup> Учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. / Гонгалоб.М., Крашенинников П.В., Михеева Л.Ю., Рузакова О.А.; под ред. П.В. Крашенинникова. – М.: Статут, 2016. – 270 с.

mamlakati qonuni mazmunini aniqlash “iura novit curia” – “sud o‘z qonunlarini o‘zi biladi” tamoyili asosida amalga oshiriladi. O‘z navbatida, chet mamlakat qonuni esa o‘z-o‘zidan sudlov mamlakatida hech qanday kuchga ega bo‘lmaydi va u kollizion normaning ta’siri natijasida qo‘llanadi. Vakolatli shaxs, albatta, har qaysi chet mamlakat qonuni mazmunini bila olmaydi va ularning mazmunini aniqlashtirishi ham vakolatli shaxs uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu tufayli bu ishda unga tegishli organlar va manfaatdor shaxslar ko‘magi talab etiladi<sup>3</sup>. Ko‘p hollarda chet el huquqi mazmunini isbotlash taraflar zimmasiga yuklanadi.

Kollizion normalar mazmunini shakllantirishda boshqa xorijiy davlatlar qonun ijodkorligi tajribasini sinchiklab o‘rganish ahamiyatlidir. L.A. Lunsning fikricha, “o‘zining kollizion normalarini yarata turib, mamlakat o‘zining fuqarolari va tashkilotlarining xalqaro hayotdagi ishtiroki masalalaridan birini hal qiladi. Shu tufayli o‘z fuqarolari va tashkilotlari uchun ushbu masalani boshqa mamlakatlar qay tarzda xal qilishi bilan qiziqmasligi mumkin emas”<sup>4</sup>.

Qoidaga ko‘ra, sudlar chet el qonunchiligi bilan bog‘liq muhim ma'lumotlarga ega bo‘limgani, xususan, uning mazmuni va qo‘llanilishi xususiyatlari to‘g’risida uncha xabardor emasligi tufayli chet el oila huquqi normalarining mazmunini tushuntirishda quyidagi organlar ko‘makchi vazifasini o’taydi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

2) O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari (masalan, Tashqi ishlar vazirligi);

3) ekspertlar;

4) manfaatdor shaxslar<sup>5</sup>.

Ushbu subyektlar chet el normasining amaliyotda qo‘llanganlik holatlari va huquqiy sharhlanishidan kelib chiqib uning mazmunini aniqlaydi. Chet el normalari mazmunini aniqlashda davlatimizning chet eldagi konsullik muassasalari, shu jumladan, xalqaro huquq sohasi vakillari, malakali ekspertlar, advokatlar, ilmiy tadqiqot institutlari va tegishli muassasalarning mutaxassislarning ham yordami kerak bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, manfaatdor shaxslar deganda ishda ishtirok etayotgan shaxslar doirasi tushunilishi lozim. Bu shaxslar o‘z talablari yoki e’tirozlarini asoslash uchun o‘zlarini vaj keltirayotgan chet el huquqi normalarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishga va bu normalarning mazmunini aniqlashda sudga yoki boshqa davlat organlariga boshqacha tarzda yordamlashishga haqli (Fuqarolik kodeksi 1160-moddasi).

<sup>3</sup> Raxmonqulova N. X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya // 2011. – B.58.

<sup>4</sup> Лунц Л.А. Курс международного частного права: В 3 т. – М.: Спарк, 2002. – С.185.

<sup>5</sup> O’sha yerda. Крашенинников

Chet el huquqini qo'llash chegaralari va shakllari turli mamlakatlar milliy jarayonida bir xil emasligini aytib o'tish joiz. Anglo-amerika doktrinasi va amaliyotiga ko'ra, sud faqatgina o'zining milliy huquqini, ya'ni sud qonunini (lex fori) qo'llaydi. Shu bilan birga, albatta, chet el qonunlari asosida vujudga kelgan subyektiv huquq va majburiyatlar tan olinadi, ammo ushbu qonunlarning o'zi tegishli huquqiy munosabatlarni keltirib chiqargan, o'ziga xos yuridik fakt sifatida tushuniladi. AQSH yoki Buyuk Britaniyada sud chet el huquqini yuridik majburiy ko'rsatma sifatida qo'llamaydi, balki ish bo'yicha fakt sifatida foydalanadi (as a fact). Klassik ingliz doktrinasiga ko'ra, «Sudya tomonidan qo'llanuvchi yagona qonun bo'lib, ish ko'rib chiqilayotgan joy qonuni hisoblanadi... Ammo ishda chet el elementining mavjudligi sababli, chet el qonuni — e'tiborga olinishi lozim bo'lgan faktdir...». Hatto shunday pragmatik yondashuvda ham, mutaxassislarning fikricha, ba'zan chet el huquqining haqiqiy mazmuni qattiq buzilishi mumkin<sup>6</sup>. Demak, bundan ko'rinish turibdiki, qo'llanayotgan huquq o'z vatanida qay ma'nolarda qo'llansa, shu tarzda boshqa mamalakatlarda ham talqin etilishi va qo'llanishi kerak.

Oila kodeksi 238-moddasi mazmuniga ko'ra, yuqorida aytilganidek amalga oshirilgan choralarga qaramay, chet el oila huquqi normalarining mazmuni aniqlanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi qo'llaniladi.

Biroq, chet el huquqining mazmuni bir qator hollarda belgilanishiga qaramay, xorijiy huquq O'zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga (ordre public) zid bo'lgan hollarda u qo'llanilmaydi, uning o'rniga milliy qonunchilik qo'llanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining jamoat tartibini saqlash qoidalari asosida ayollar va muayyan millatga mansub shaxslar huquqlarini kansituvchi xorijiy qonun hujjatlarini qo'llash taqiqlanadi<sup>7</sup>. Yana bir misol bir jinsdan tarkib topgan ittifoqlarning huquqiy oqibatini tan olish O'zbekiston qonunchiligi uchun yot tushuncha. Vaholanki ayrim davlatlar allaqachon bu holatni qonuniy deb baholaydi va tan oladi. Shu sababdan ko'plab huquqshunos nazariyachilar oila tushunchasiga alohida ta'rif berib, Oila kodeksida tushuntirishni va oilani ikki jins vakili ittifoqi natijasida yuzaga kelishini alohida ta'kidlashni taklif qilyapti.

O'zbekistonda chet el normativ hujjatlarini aniqlash xalqaro xususiy huquqning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon milliy huquqiy tizimning xalqaro huquqiy munosabatlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Huquqiy manbalarni to'g'ri aniqlash, ularning mazmunini tushunish va milliy huquq tizimida qo'llash orqali O'zbekiston xalqaro huquqiy munosabatlarda samarali ishtirok etishi mumkin. Bu

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000. 1160-moddasi.

<sup>7</sup> **U. Sharahmetova.** Ozbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni huquqiy tartibga solish masalalari. // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2023. – B.669-670.

jarayonda uchraydigan muammolarni hal qilish esa, milliy va xalqaro huquqiy tizimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda, umuman dunyo miqyosida xalqaro xususiy huquq sohasida bir tomonlama kollizion normalar, shu jumladan, lex forining o’rnini ikkitomonlama kollizion normalar (eng uzviy aloqa, erk muxtoriyati bunga yaqqol misoldir.) bilan almashtirish muhim tendensiyalardan hisoblanmoqda. Mamalakatimizda ham Fuqarolik huquqi institutini tubdan yangilash, zamonga mos bo’lgan qoidalarni qo’llash va yangi tushunchalar bilan boyitish masalasi ko’ndalang qo’yildi. O’ylaymizki, chet el elementi ishtirokidagi oilaviy munosabatlar ham ushbu rivojlanishdan chetda qolmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2000.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000.
3. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan vurist, prof. O.I.Oqyulovning umumiyligi tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti // 2017. - B.170.
4. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiyligi tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – B.226.
5. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasi da xizmat ko‘rsatgan vurist, prof. O.I.Oqyulovning umumiyligi tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyotiL 2017. - B.175.
6. Учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. / Гонгалоб.М., Крашенинников П.В., Михеева Л.Ю., Рузакова О.А.; под ред. П.В. Крашенинникова. – М.: Статут, 2016. – 270 с.
7. Raxmonqulova N. X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya // 2011. - B.109.
8. U. Sharahmetova. Ozbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari o‘rtasidagi nikohni huquqiy tartibga solish masalalari. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2023. – B.669-670.
9. Лунц Л.А. Курс международного частного права: В 3 т. – М.: Спарк, 2002. – С.185.